

Vatan yagonadir,
Vatan bittadir!

N: 15 (67232)
2019-yil 15-aprel

Tong yulduzi

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

ISSN-2010-6092



KO'NGILLARNING SO'NMAS OFTOBI,
KITOB ERUR HAYOT JA VOBI...



«KIM KO'P KITOB O'QIYDI?»

Respublika an'anaviy tanloviga marhamat!

Aziz o'quvchilar! O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi hamda O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlarning «Tong yulduzi» gazetasi yozgi ta'til kunlaringizni yanada maroqli o'tkazish maqsadida «Kim ko'p kitob o'qiydi?» Respublika an'anaviy tanlovini e'lon qiladi.

Tanlov shartlari quyidagicha:

Ishtirokchilarning o'qigan badiiy kitoblari ro'yxati hamda mutolaa qilgan asari yuzasidan fikr-mulohazalari, qanday taassurotlar olganligi, mактабдаги eng yaxshi kitobxon o'quvchi ekanligini tasdiqlovchi mактаб direktori va sinf rahbarining tavsifnomasi hamda surati «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga yuboriladi.

Maktubingizda telefon raqamingizni ko'rsatishni unutmang.

G'oliblar va ularning ustozlari joriy yilning 1-oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni arafasida aniqlanadi hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlanadi.

Siz ham tanlovda faol ishtirok eting va eng ko'p kitob o'qiydigan o'quvchi nomiga sazovor bo'ling.

Maktubingizni quyidagi manzilga jo'nating: Toshkent shahar, Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Indeks – 100011. Telefon/faks: (0-371) 244-63-08. E-mail: tongyulduzi1929@umail.uz

MAKTABDAGI KUZATUV KENGASHLARI

qanday ishlarni amalga oshirmoqda?

Aziz o'quvchilar, yangi o'quv yilidan boshlab maktabingizda Kuzatuv Kengashi faoliyat yuritayotganidan xabaringiz bormi? Asosan, ota-onalardan tashkil topgan Kengashning maqsad va vazifalarini nimalardan iborat ekanini bilasizmi? Ezgu niyatda tashkil qilingan ushbu Kengash a'zolari sizning puxta bilim olishingiz uchun imkoniyatlarni yanada kengaytirish, zarur shart-sharoitlar yaratishga ko'maklashishni maqsad qilishgan. Shuningdek, Kengashning nomidan anglaganingizday, uning a'zolari tomonidan ta'lif dargohingizda amalga oshirilishi rejalashtirilgan vazifalarining qay darajada bajarilayotganini kuzatib borishadi, taklif bildirib, imkon darajasida o'z yordamlarini ham ayashmaydi. Qanday yaxshi, juda soz ish bo'libdi, endi ota-onalarimiz ustozlarimiz bilan birga ish olib borishar ekan-da, deysizmi? Ha, gapning indalloagini aytganda, ana shunaqa! Kuzatuv Kengashi a'zolari orasida ota-onalar bilan birgalikda sobiq bitiruvchilar, nafaqadagi ustozlar va homiyalar ham borki, kundalik masalalarni atroficha ko'rib chiqib, xulosa chiqarishga zamin yaratadi.

Biz poytaxtimizdagi ayrim umumta'lum maktablarining Kuzatuv Kengashlari faoliyati bilan qiziqdik.



Kuzatuv Kengashi a'zolari o'quv dargohin-gizdagagi qanday masala va muammolarni hal etishyapti? Kengashga qanday taklif, istaklar bildirish mumkin?

Shunday savollar bilan biz poytaxtimizning Shayxontohur tumanida joylashgan 262-umumta'lum maktabi rahbari Gulnoza opa Zoirovaga murojaat qildik.

–Kuzatuv Kengashi tashkil qilinganiga ko'p fursat bo'lmagan bo'lsa-da, uning faoliyati meni qoniqtirayti, deb aya olaman. Kengash a'zolari o'rini takliflar bilan chiqib, ko'pgina muammolarni hal etishga harakat qilishyapti. Masalan: Dilfuza opa Qodirova va Dilobar opa Kamolova:

«Farzandlarimiz, nabiralarimiz bu yil maktabni tamomlashadi. Oliy o'quv yurtiga kirish uchun q'shi turmandagi «O'quv markazlariga qatnashmoqda. Shunday markazlar bizning maktabimizda ham ochilsa yaxshi bo'lardi», deya takliflar kiritildilar. Shundan so'ng, Kengash a'zolari bilan kelishib abituriyentlar uchun maktabimizda o'quv markazi ochishga qaror qildik. Bundan tashqari, maktab binosini ta'mirlash ishlardan ham Kengashning xizmati katta bo'limoqda. Kengash a'zolaridan xususiy tadbirkor Ziyovuddin Minnovarov, sobiq o'quvchilardan biri Nasiba Vasilova va Abror Yusupov ko'magida homiyalar tomonidan maktabimiz fondiga 4 million so'm pul o'tkaziladi.

Kengash a'zolariga bilim dargohimiz bitiruvchilari tomonidan maktabimiz hududida bog' barpo etishni taklif etdim. Toki, bu bog' ulardan esdalik bo'lib, totti mevalaridan kelgusi avlod ham bahramand bo'sin.

Kengash a'zolarining yanada faolroq bo'lishlarini, mening ham, o'qituvchilarimiz faoliyatini ham ziyrak nigoh bilan kuzatib borishlarini, muammolamiz yechimiga yelkadosh bo'lishlarini istayman.

Nigora ABDUNAZAROVA

Meni ham farzandim tahsil olayotgan maktabdagidagi Kuzatuv Kengashi a'zosi etib saylashdi. Shu bois, poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 226-umumta'lum maktabida mazkur Kengash tomonidan amalga oshirilgan ishlarning bevosita ishtirokchisiga aylandim. Biz faoliyatimizni avvalo, o'quv dargohida Kuzatuv Kengashi tashkil etilganini har bir o'quvchi va uning ota-onasiga ma'lum qilishdan boshladik. Ota-onalar va Kengash a'zolari bilan bo'lgan yig'ilishda bir yo'la ishtirokchilarni o'yantirib kelayotgan masala va muammolarni o'rgandik. Aksariyat ota-onalarini maktabdagidagi iqtisodiy masalalarini ham qiziqritishi ma'lum bo'ldi.

Kuzatuv Kengashi o'z vakolatidan kelib chiqib, masalani o'rganishga kirishdi. Maktab hududini kuzatuv kameralarini bilan ta'minlash, maktabdagidagi informatica xonasini zamonaviy texnika bilan jihozlash maqsadida davlat tomonidan ajratilgan kompyuterlarni sinfxonasiga o'matish va shu kabi ishlarga sarflanadigan xarajatlarni Kengashga a'zo bo'lgan

homiyalar rais Bahriiddin Alixonov boshchiligidagi o'z zimmalariga olishdi. Kaminaga esa ta'lif maskanidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarda ko'maklashish, o'quvchilarni o'z nashrlari bilan do'stlashtirish vazifasi topshirildi.



O'ylab ko'ssam, bu kabi ishlar aslida mening kasbiy maqsadim, niyatim ham edi. Shunda angladimki, Kuzatuv Kengashining har bir a'zosi o'z farzandi qatori boshqa o'quvchilarning ham komil inson bo'lib voyaga yetishi yo'lida xizmat qilishdan mammun. Bu yo'lida esa faqat jonbozlik, faoliyk ko'rsatish, kengashish kerak, xolos.

Sayyora QODIROVA

Baxtiniso PO'LATOVA,
Shayxontohur tumanidagi 324-umumta'lum maktabi direktori:

– Xabaringiz bor, har bir ta'lif muassasasida ta'lif jarayonining shaffofligini ta'minlash, jamoatchilik ta'sirini kuchaytirish, o'quvchilarning sifatli ta'lif olishlari uchun ularga tegishli shart-sharoitlar yaratish maqsadida Kuzatuv Kengashi tashkil etildi. Shu munosabat bilan bizning 1800 nafar o'quvchi tahsil olayotgan maktabimizda ham ota-onalar qo'mitasi a'zolari, pedagog xodimlar, maktabning sobiq bitiruvchilari, maktab faxriy o'qituvchilari, homiyalar hamda ota-onalar ishtirokida yig'ilish o'tkazildi. Unda yig'ilganlar umumiy o'rta ta'lif muassasasining Kuzatuv Kengashi haqidagi namunavui Nizom bilan tanishтирildi. So'ngra, sinflarda o'tkazilgan yig'ilishlarda Kuzatuv Kengashi a'zoligiga nomzodlar ko'rsatildi. Ota-onalardan 2, sobiq bitiruvchilardan 1, nafaqadagi pedagoglardan 1 hamda homiyardan 2 nafar nomzod Kuzatuv Kengashi a'zoligiga saylandi.

– Har chorakda o'tkaziladigan Kuzatuv Kengashining birinchi yig'ilishida men ham ishtirok etdim, – deydi Kengash a'zosi Zilola Ibragimova. – Tavsiya etilgan nomzodlardan ta'lif muassasasi rahbarini saylash, o'quvchilar uchun yaratilgan sharoitlar ustidan tizimli ravishda monitoring o'rnatish, o'quvchilar va ota-onalarning murojaatlarni ko'rib chiqish, ta'lif muassasasining pedagog va rahbar xodimlari faoliyati to'g'risida ijtimoiy so'rovlarni o'tkazish kabi vazifalar ta'lif sifatini oshirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

Hozirgi kunda dars jarayonlarini nazorat qilish bo'yicha ko'plab takliflar tushyapti. Biz Kengash a'zolari aynan qaysi ustozlar darsini kuzatish kerakligi haqida o'tkazilgan so'rovnoma asosida farzandini ota-onalarga mashg'ulotlarni kuzatish imkonini yaratayapmiz. Ota-onalarning yozma murojaatlari asosida uzrli sabab bo'lsagina, mashg'ulotlardan ozod etilishi ham yo'lga qo'yilgan. Navbatdagi yig'ilishimizda muammoli o'quvchilar bo'yicha ham fikrashib olmoqchimiz.

Nodira NAZAROVA



Kuy-qo'shiqlarning manzil-u makoni
bo'lmaydi, millat tanlamaydi, chegara bil-
maydi. U beg'ubor ko'ngillarni birdek zabit
etadi.

DO'MBIRANING DILKUSH NAVOSI



So'lim Surxon vohasida bo'lib o'tgan 1-Xalqaro baxshichilik san'ati festivalida 5 yoshli G'olibjon Oripov ismiga monand «Eng yosh baxshi» nominatsiyasi g'olib bo'ldi. G'olibjon baxshichilik maktabining 1-sinf o'quvchisi. Ustozi Muhammad Baxshi Esh-boyevdan 10 ga yaqin termani yod olgan. Yosh iste'dod egasi, shuningdek, kitob o'qish, rasm chizishga ham qiziqadi.

Millatimizga xos bo'lgan dostonchilik, baxshichilik san'atimiz bugun dunyo xalqlarining yuragiga yetib borayotgani ham shundan. Yaqinda Surxon vohasida bo'lib o'tgan baxshilar sayliga dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan sozanda-yu xonandalar jam bo'lishi. Davlatimiz rahbarining baxshichilik san'ati sohasiga ko'rsatgan e'tiboriga dunyo ahli lol qoldi. Qardosh xalqlarning tashrifi sayغا faz bag'ishladi. Vohaning bepoyon dasht-u dalalari bag'rida tarix jonlandi, borliqda do'mbiraning sehrli navosi aks sado berdi.

Bizga yaxshi ma'lumki, baxshi so'zi ustod, ma'rifatchi degan ma'noni anglatadi. Yurtimizda Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Farg'on, Qoraqalpoq baxshichilik maktablari mavjud. Baxshi-yu oqinlar asosan, rubob, doira, qo'biz, dutor, do'mbira jo'rligida terma va dostonlar aytiladi. Aytimlarda kuy va ovoz mutanosibligi muhim o'rinn tutadi. Shu bilan bir qatorda, so'z boyligiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Baxshilar timsolida ham shoirlik, ham sozandalik, ham xonandalik mahoratini mujassam etadigan insonlarning nodir iste'dodi gavdalananadi.

Termiz shahrida o'tkazilgan ilk Xalqaro baxshichilik festivali baxshichilikni umrboqiy san'at turiga aylantirish borasidagi sa'y-harakatlarning debochasi bo'ldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

O'z muxbirimiz

HOVIMIZDA SUMALAK SAYU

Ilgarilar sumalakni mazza qilib tanovul
qillardim-u, lekin momolarimiz uni qanchalar
mashaqqat bilan tayyorlashlari haqida o'ylab
ham ko'rмаган еканман.

Erta tongdan uyimizga onamga ko'maklashgani qarindoshlarimiz kelishdi. Ular birligida bug'doy tozalab, uni ivitib, bir kundan so'ng nam dasturxonga o'rab qo'yishdi. Men ham ularga ko'maklashdim. Bug'doya uch mahal suv quyib turdik. U nish ura boshlaganida, siqib, suvini chiqardik. Men o'choqqa o'tin qaladim. So'ng, katta doshqozonga bug'doy va undan chiqqan oppoq suvni solib qo'yidik. Ha, aytganday, sumalagimiz tagiga olmasligi uchun biz bolalar bilan mayda toshlar terib keldi. Menga barcha qarindoshlar biznikida shod-xurramlik bilan sumalak qilishayotgani judayam yoqdi. Qani endi bu zavqli damlar sira tugamas, deb o'yladim. Kechasi sumalakni dimlab qo'yidik. Erta tongda barcha qarindoshlar qozon atrofiga yig'ildi. Kattalar uzundan uzun duo qilishdi. Nihoyat, sumalakning ustini ochdik, uning yuzida kapalakning tasviri ko'rindi. Sumalagimiz judayam mazali chiqdi. Biz kosa-kosa sumalakni qo'ni-qo'shnilarga, qarindoshlarga tarqatdik.

Javohir ABDUSAMADOV,

Toshkent viloyati, Bekobod tumanidagi
13-umumta'lum maktabining 6-«A» sinf
o'quvchisi


Baxshilar nafaqat xalq o'tmisining aks sadosi, ayni paytda
bugungi kunning ham jarangdor ovozidir.

Shavkat MIRZIYOYEV

SAYOHAT QILMOQCHIMISIZ?

«Sardorlar karvoni» loyihasida faol bo'ling

Mamlakatimizdagi madaniy yodgorliklar hamda ziyyaratgohlar tarixi bilan yaqindan tanishish maqsadida O'zbekiston yoshlar ittifoqi Navoiy viloyati sardorlar Kengashi tomonidan «Sardorlar karvoni» loyihasi tashkil etildi. Loyiha viloyatinizning turli tumanlaridan kelgan 100 dan ortiq yoshlarni jamladi. Ular qatori men ham Samarqand viloyatida joylashgan Hazrati Dovud ziyyaratgohiga bordim.



Baland tog' bag'ridagi ziyyaratgoh odamlari bilan gavjum. U yerning tabiatini behad go'zal, xushmanzara. Dastaval, do'starimiz bilan birligida tog'dagi zinalar bo'ylab barchaga mashhur bo'lgan Hazrati Dovud g'ori tomon yo'l oldik. Hayratlanarli shundaki, bu zinalarning aniq sonini hech kim bilmas ekan.

Afsonaviy g'or ham o'ziga xos tarixa ega. Aytilshariga qaraganda, asli temirchilik bilan shug'ullanuvchi mashhur din ulamolaridan biri bo'lmish Hazrati Dovud dashmanlar bosqini vaqtida shu g'orda jon saqlagan ekanlar. Hozirgi kunda ham allomalarining g'or devorlarida qolgan panja izlari yaqqol ko'rinish turadi.

Qadamjoni ziyyarat qilgach, tabiat qo'ynida, do'star davrasida turli o'yinlar o'yinab, vaqtimizni mazmunli o'tkazdik.

Aziz do'star! Siz ham mamlakatimiz bo'ylab sayohat qilmoqchimisiz? Unda safimizga qo'shiling va O'zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan tashkil etilayotgan «Sardorlar karvoni» loyihasida faol bo'ling.

Lobarxon JALOLOVA,
Navoiy viloyati, Navoiy shahridagi 11-DIUM 9-sinf o'quvchisi,
O'zbekiston yoshlar ittifoqi Navoiy viloyat sardorlar Kengashining
press-klub yo'nalishi sardori



BILIMDON O'QUVCHILAR

Har yili ta'lif maskanimizda «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi» tanlovini o'tkazamiz. Unda o'quvchilarimiz juda faollik bilan ishtiroy etishadi. Bu yilgi ana shunday tadbirimizga bolalarning sevimli shoiri Dilshod Jab, Soyib Mirzo va yosh qalamkash shoirimiz Bahodir Bahromlar ham tashrif buyurdi.

To'rt shart bo'yicha belashgan yosh kitobxonlarning chiqishlarini tomosha qilgan o'quvchilar bir nechta asarlari haqida ma'lumotga ega bo'ldi. Eng ko'p kitob o'qigani yuzi-yu so'zidan bilinib turgan 8-«D» sinf o'quvchisi Azizbek Abdumalikov 1-o'ringa sazovor bo'ldi. Bu iste'dod egasi «Tong yulduzi» gazetasining yosh muxbirini hisoblanadi. Bellashuvda, albatta, qizlar ham faollikni qo'dan berishmadi. Sora Sai-

dova 2-, Mashhura Ziyayeva esa 3-o'rinni egallashdi. Aziza «Suxandon o'quvchi» nominatsiyasiga munosib ko'rilgan bo'lsa, Muxlisa «Eng zukko qiz», Mehrbon «Eng iqtidorli o'quvchi», deb topildi.

O'quvchilarimizning kitobxon-u bilimdonligidan quvongan mehmonlar va maktab ma'muriyatasi ishtiroychilarga eng yaxsho sovg'a bo'lmish kitoblar tuhfa qilishdi.

Nasiba ESHMO'MINOVA,
Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
202-umumta'lum maktabi kutubxonachisi

OPAJON, BOLALAR NASHRLARINI AYTVORING...

Tahririyatimiza har kuni ko'plab o'quvchilar o'z ijod namunalaridan olib kelishadi. Lekin ularning hammasi ham kamchiliklardan holi bo'lmaydi. Shunda biz yosh ijodkorlarga, yozganlaringizni avvalo, ustozingizga ko'rsating, keyin esa qiziqishingiz bo'yicha yo rassom, yo shoir, yo adib, yo jurnalistdan yo'l-yo'riq oling, deya erinmay tushuntiramiz.

Shahnoza ismli qiz ham she'rlarini olib kelar, bizdan maslahatlar olib turardi. Bir kuni o'sha qiz telefon qilib:


— Opajon, o'zbek shoirlari va yozuvchilaridan bir-ikkitasining ism-sharifini, bolalarga bag'ishlab chop etiladigan qanday gazeta va jurnallar borligini tez aytvoring, — deb qoldi.

— Nega? — qiziqib so'radim Shahnozaning savoldidan biroz ajablanib.

— Oliyohga kirish uchun ijodiy imtihonga tayyorlanayotgan edim. Shu savollar tushishi mumkin, deyishyapti.

— O'zingiz bilmaysizmi?

— Men xususiy nashrlarni o'qiymen. Ammo davlat nashrlari degan joyi ham bor ekan.



Savollariga javob berarkanman, bizning nashrn aytmadingizmi, dedim.

— Nomi esimdan chiqibdi, axir obuna bo'limgan edim-da, — degan javobni oldim. Go'shakni qo'yarkanman, o'ylanib goldim: nahotki, she'r yozadigan, oliyoh talabasi bo'lishi orzusida-gi o'quvchi na biror shoir-u yozuvchining, na b o l a l a r gazeta va jumallarining nomini bilmasa?! Axir biz mashhur ijodkorlarmizni bolalar nashrlari orqali taniganamiz, ilk ijod namunalarini shugazeta va jurnallarda o'qiganamiz. Chunki tahririyat xodimlari o'sha yosh iste'dod sohiblarining ijod namunalarini chop etishni ma'qul deb bilishgan, iste'dodin erta payqay olishgan.

Keyinchalik ijodi «buloq», «chashma»ga qiyoslangan o'sha yosh qalamkashlarning qalami charxlanib, oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirishgan. Talabalik yillardayoq ularning ilk kitoblari chop etilgan. Biz sevib o'qiydigan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Halima Xudoyberdieva, Muhammad Yusuf, Xudoyberdi To'xtaboyev, Rauf Parfi, Omon Matjon kabi yuzlab el sevgan ijodkorlarning ijodi bilan, eng avvalo, «Tong yulduzi», «Gulxan», «G'uncha», «Yoshlar ovozi», «Yoshlik», «Sharq yulduzi» kabi gazeta va jurnallar orqali tanishganamiz. Ba'zan, maktabni bitiriyapman, she'rlarimni qayerda chop ettirsim bo'ladi, degan savollar qulqoqha chalinadi. Biz «yarq» etgan iste'dod egasiga ijod borasida kimlardan maslahatlar olishi kerakligini aytar ekanmiz, ana shunday o'quvchilar yo'jidda o'z usul-biga ega bo'ladi, yo o'rtamiyona ijod qilayotganini anglab, o'z ustida ko'proq ishlaidi. Har bir ijod namunasi ko'ngil kechinmalari mahsuli ekanligini anglab yetadi, deya umid qilamiz.

Aziz o'quvchilar! Siz yuqorida sanab o'tilgan nashrlarni o'qib borasizmi? Agar shunday bo'lsa, ijod qilish nechog'li mashaqqatli jarayon ekanligini anglasangiz, so'z mas'uliyatini, adabiyot qiymatini his qiladigan inson bo'lib yetishsangiz, ajabmas. Jilla qur-sa, ijodi tanlovlarda muvaffaqiyatlari qatnashasiz, kelajagingizga zamin tayyorlaysiz. Shunday ekan, o'z nashrlaringizni o'qib, tafakkuringizni charxlang. Bilim doirangizni kengaytirishda bolalar nashrlarining o'mni beqiyos ekanligini unutmang!

N. NAZAROVA

Ustozimiz Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy davlat kutubxonasi-da kitob mutolaa-siga bag'ishlangan tadborda ishtirot etish uchun bizni taklif qilishganini aytganlarida, quvonganimizdan qarsak chalib yubordik, xursandligimiz boisi, bu kutubxona-ga birinchi marta tashrif buyurayotgan edik-da.



NURKONADA KO'NGLIMIZ URLANDI yoki bizni xursand qilgan tadbir

Hazrat bobomiz nomi bilan ataladigan bu ziyo maskaniga borgani, tadbir o'tkazilayotgan xonadagi javonlarga terib qo'yilgan kitoblarini ko'rib, ko'zlarimiz quvnab ketdi. Tadborda ishtirot etgan adabiyotshunos olim Ibrohim G'afurov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan yoshlar murabbibi Saydi Umirov, shoirlar — Sharifa Salimova, Farida Bo'tayevalar kitob eng katta boylik ekanligi, mutolaani qaysi asarlardan boshlash lozimligi, har qanday muammoga mutola orqali yechim topish mumkinligi haqida so'zlab berdilari. Shoir ya yozuvchi Muxtor Xudoyqulovning biz bolajonlarga bag'ishlangan she'rlarini maroq bilan tingladik.

O'z navbatida, biz ham tadbirda ustozimiz o'rgatgan kitob haqidagi she'rlar hamda buyuk allomalarining kitob to'g'risidagi durdona fikrlaridan aytib berdik. San'atkorlar tomonidan kuylangan qo'shiqlar davramizga fayz kiritdi. Tadbir so'ngida bizga respublika «Nuroni» jamg'armasi tomonidan kitoblar sovg'a qilindi.

Toshkent shahar, Yunusobod tumanidagi 274-umumta'lum maktabining 4-«E» sinf o'quvchisi

SOHIBQIRON IZDOSHLARIMIZ

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 18-umumta'lum maktabida buyuk ajdodimiz Amir Temur tavalludining 683 yilligiga bag'ishlangan tadbir bo'lib o'tdi.

«Sohibqiron avlodlarimiz» deb nomlangan tadbirni maktab direktori Baxtiyor Bekov ochib berdi. U Sohibqiron bobomizning shonli hayot yo'lli, tarixiy yurishlari, davlat boshqaruvida olib borgan siyosati, turkiy xalqlar madaniy turmushiga olib kirgan yangiliklari, bunyodkorlik ishlari, qurdirgan imoratlari haqida so'zladi. O'quvchilarini Sohibqiron shaxsini yuksak muhabbat bilan o'rganish va undan ibrat olishga chaqirdi. Ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Malika Toirova esa Amir Temur va temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat, adabiyot rivojiga katta e'tibor qaratilgani, Lutfiy, Navoiy, Bobur kabi buyuk so'z san'atkorlarning shu ijodiy muhitda shakllanganlari, shuningdek, ko'plab san'at va fan namoyandalari yetishib chiqqanini ta'kidladi. Tadbir tashkilotchisi, tarix fani o'qituvchisi Husnora Jumayeva Amir Temurning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan ulkan hissasi xususida so'zlab, uning har jihatdan mukammal shaxs bo'lganiga urg'u berdi. Sharq-u g'arbda ma'rifikati va odil hukmdor sifatida tilga olinishini aytib o'tdi. «Temur tuzuklari»ning ma'naviy ahamiyati, o'quvchi-yoshlar tarbiyasidagi o'rnini alohida qayd etdi.

Maktabning 5-, 6- va 7-«A» sinf o'quvchilari «Temur tuzuklari»dagagi ibratlari iqtiboslarni yoddan aytib berdilar. O'zbekiston qahramonlari Abdulla Oripov, Erkin Vohidovlarning Vatan, millat, buyuk ajdodolarimiz haqidagi she'rlaridan o'qidilar. Ayniqsa, 5-«A» sinf o'quvchilari Farangiz Faxriddinova, Nozima Shukrullayeva, 6-«A» sinf o'quvchilari Nozila Sultanmurodova, Mirjamol To'xtayev, 7-«A» sinf o'quvchilari Maftuna Mirhaitova, Sarvar Jo'rayev so'zlagan tarixiy voqealar va ular o'qigan she'rlar, ijro etgan sahna ko'rinishlari tadbir qatnashchilarida katta taassurot qoldirdi.

Tadbir qatnashchilar o'zlarining buyuk shaxslar avlod ekanligini yana bir bor his etib, qalbdan faxr va iftixon tuyg'ularini tuydilar. Kelajakda O'zbekistonning ma'naviy, madaniy, intellektual, iqtisodiy qadratini jahonga yoyishdek ulkan ishlarni amalga oshirish niyatini dillariga tughdilar.

AXTAMQULI



USTOZLARGA HAVAS QILAMAN

Maktabimizda bizga o'z kasbinining fidoyisi bo'lgan ustozlarimiz ta'lif-tarbiya berishadi. Sinf rahbarimiz Horun aka Norxo'jayev 33 yildan beri rus tili va adabiyoti fanidan saboq berib kelmoqda. Hozirgi kunda ustoz o'qitgan ayrim o'quvchilarning o'zlari ham ustoz, shu matabda bolalarga bilim ulashishmoqda.

Ustozlardan olgan bilimlarimizni turli ko'rlik-tanlovlarda sinovdan o'tkazayapmiz. Jumladan, men ham joriy yili bo'lib o'tgan fan olimpiadasida maktab va tuman bosqichlarda faxrli o'rinni egallab, viloyat bosqichida qatnashdim. Bu yutuqlarga erishishimda ustozim Horun akaning mehnatlari beqiyos. Ular menda rus adabiyotiga qiziqish uyg'otganlar. A. Pushkin, M. Lermontov,

S. Yesenin she'rlari, Jek London, L. Tolstoy hikoyalarini katta qiziqish bilan o'qib chiqdim.

Ushbu maqolam orqali menga beminnat ta'lif berib kelayotgan ustozlarimga tashakkurimni aytaman. Kelajakda ulardek fidoyi ustoz bo'lishga intilaman.

Sevara SIROJOVA,
Jizzax viloyati, Forish tumanida-
gi 78-umumta'lim matabining
9-«A» sinfi o'quvchisi



Lesson 15

THE USAGE OF NEITHER



Neither... nor ... is a conjunction. It refers a opposite meaning of **Both... and...**

After this phrase we use the verb in singular form.
e.g. *Neither Bobur nor Doniyor likes playing chess.*

Before a single noun we use **Neither** as a noun.

Neither + Singular noun

e.g. *Neither pupil knew the answer of question.*

We can use **Neither of** before a determiner and plural noun.

e.g. *Neither of our friends understood his speech.*

When we use the structure: **Neither + of + pronoun** we must use the proposition **OF** before that pronoun.

e.g. *Neither of them want to go there.*

Neither is frequently used as part of a short response when someone says something negative and you agree with them.

e.g. A) *I am not going to write this article.*

B) *Neither am I.*

Choose the correct answer.

1. ____ were ill so they stayed at home instead of going to school.
A) Both; B) Neither of; C) Both; D) Either.

2. I did not like ____ of choices.
A) Both; B) Neither; C) Either; D Both of.

3. I could not decide between them.
— I liked them _____.
A) Both; B) Either; C) Neither; D) Either of.

4. I called ____ of them and left messages as they did not answer.
A) Both; B) Neither; C) Either; D) Neither.



Ko'zlangan maqsadga erishish uchun bilim qatori o'sha darajada ishbilarmonlik kerak.

P. BOMARSHE

QODIRIY BOBOMNI ESLAB



Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 197-umumta'lim matabida buyuk adib Abdulla Qodiriy tavalludining 125 yilligi munosabati bilan yosh kitobxonlar tomonidan «Qodiriy bobomni eslab» deb nomlangan tadbir bo'lib o'tdi. Unda Qodiriyning nabirisasi O'limas Muhammадaminova bobosi haqidagi xotiralarni so'zlab berdi.

MUVAFFAQIYAT KALITI KIMNING QO'LIDA?

16 yoshli Samey Godik Khan Academy, Google, Facebook ijtimoiy tarmoqlari tomonidan o'tkazilgan «Breakthrough Junior Challenge» xalqaro tanlov-musobaqasining o'tgan yilgi g'olib bo'ldi.



Samey Godikning yaqinlari nihoyatda og'ir – nevrologik kasallikdan aziyat chekadi. Oila a'zolariga yordam berishni chin dildan istagan yigitcha davolash mushkul bo'lgan Altsgyemir va Parkinson kasalliklarini chuqr o'rganishga kirishadi. Izlanishlari yakunida u bu kabi kasallikkardan himoyalanish usulini ishlab chiqdi. Godik suratga olgan rolik ijtimoiy tarmoqlarda keng muhokamalarga sabab bo'ldi. Musobaqaning so'nggi bosqichida qirq nafar ishtirokchi bilan bahslarga kirishgan Samey Godik yakunda g'olib deb topildi. Ta'kidlash joizki, bunga qadar hech bir hindistonlik maktab o'quvchisi bu kabi yutuqqa erishmagandi.

Los-Anjelesda bo'lib o'tgan taqdirlash marosimida bangalorlik g'olibiga 250 000 dollarlik pul mukofoti topshirildi. Bundan tashqari, Samey Godik endilikda dunyoning istalgan universitetida imtiyozli tarzda tahsil olishi mumkin.

Mening g'olib bo'lisminda maktabimning, do'stlarimning xizmatlari juda ham katta. Ana, ko'rdingizmi, aziz o'quvchilar, muvaffaqiyat kaliti, albatta, o'z qo'limizda. Buni aslo unutmang, — deydi musobaqa g'olib.

Sameyga beg'araz ko'maklashgan do'stlarining xizmatlari ham besamar ketmadi. Homiylar u tahsil olayotgan matabni ta'mirlab, zamonaviy ilm maskaniga aylantirish uchun 100 000 dollar pul mablag'i ajratdilar.

Muhammadsharif FAYZULLAYEV tayyorladi

MOTIVATIONAL QUOTES

There is nothing more powerful in the world than the idea that came in time.

Victor HUGO

Everyone has inside them a piece of good news. The good news is you do not know how great you can be! How much you can love! What you can accomplish! And what you potential is.

Anne FRANK



Osmonda yolg'iz
Qoldingmi, Quyosh?
Senga tikilsam,
Ko'zim nega yosh?!

Issiq mehringdan
Qalblar toplanar.
Nuring sochaver,
Yonsin yuraklar.

Feruza YOQUBOVA,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi
tumanidagi 17-umumta'l'm
maktabining 7-sinf o'quvchisi



BU DUNYODA YAGONAM

Bu dunyoda yagonam,
Bag'ri quyoshdek issiq.
Mening mehribon onam,
Dunyoda erur tengsiz.

Men gul bo'ssam, siz menin
Bog'bonim bo'ling doim.
Sizni yaxshi ko'raman,
Yuzga kiring iloyim.

Dilsora ESHONBOYEVA,
poytaxtimizning Yashnobod
tumanidagi 206-umumta'l'm
maktabining 3-«V» sinf o'quvchisi

YOSHLAR ITTIFOQI

Bizlarga berding imkon,
Kelajak uchun karvon,
Yo'ldosh bo'lgan har zamon,
Yoshlarning ittifoqi.

Burka yurtni gullarga,
Ishonch bo'lib dillarga,
Chorla yorug' yo'llarga,
Yoshlarning ittifoqi.

Yo'naliishlar basma-bas,
Ijad ahli bo'ssa, bas,
Yoshlular uchun zo'r havas,
Yoshlarning ittifoqi.

Mustaqil yurtim uchun,
Havasmand inson uchun,
Iste'dod imkon uchun,
Yoshlarning ittifoqi.

Durdon Mirsoatova,
Toshkent viloyati, Piskent tumanidagi 5-umumta'l'm
maktabining 10-«E» sinf o'quvchisi

ILK KITOBCHAM ULASHGAN QUVONCH

**Men tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar markazi qoshidagi
«Yosh jurnalist va notiq» to'garagi a'zosiman. Ustozim Sayyora
Ernazarova olib boradigan mashg'ulotlar menga juda yoqadi.**

Tengdoshlarim bilan yozgan she'rlarimizni bir-birimizga o'qib, zavq-lanamiz. Ijad namunalarmiz esa ustozlarimiz sa'y-harakatlari tufayli to'plam holida bosmadan chiqdi. Mening «Ukam cholcha bo'p qoldi» nomli she'riy kitobcham «Yangi asr avlod» nashriyotida nashr etilganida, quvonchim ichimga sig'may ketdi. Ijodkorlik hayotimning mazmuniga, eng sevimli mashg'ulotimga aylandi. Bu borada menga ustozlik qilayot-gan samimiya qalbidaryo to'garagimiz rahbari Sayyora opadan juda minnatdorman.

Zarinabonus IBODULLAYEVA,

Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi
15-umumta'l'm maktabining 10-«B» sinf o'quvchisi



BIR TUMANDAN QO'SH MAKTUB



Mening hikoyalarim tanlovi!

«Opa, Sarvar kecha Diyorbekni bizga yomonladi, u samimiy emas», dedi. Yetakchimiz: «Sarvar, rostdan ham Diyorbekni yomonladingmi?» deb so'ragan edi. U «Yo'q», deb javob berdi. Guruhdagagi besh-olti bola esa «Yomonlading-ku», deb tasdiqlashgach, Sarvar jum bo'lib qoldi. Yetakchimiz: «Sarvar, sen samimiy emas ekansanku!» dedi. Sinfoshim qip-qizarib ketdi va «Endi bunday qilmayman», deb hammadan kechirim so'radi.

Diyorbek DONIYOROV,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 13-umumta'l'm maktabining 7-sinf o'quvchisi

Bolalik – umrning eng beg'ubor fasli. Bu davorda nimalar orzu etilmaydi, kim-larga havas qilinmaydi deysiz...

Biz ham bola bo'lganmiz, orzular qilganmiz. Shuning uchunmi, Xudoyerdi To'xtaboyevning «Sariq devni m i n i b » asaridagi Hoshimjon Ro'ziyev kabi qahramonlarni, ijodga qizi-qadigan, turoq va qofiya izlay-digan bola bo'lgani-miz uchun yaxshi tushunamiz, his qilamiz.

Yonimizga ijod namunalardan olib kelgan bolardan soddagina qilib: «Sariq devni minib»ni o'qiganmisani?», «Hoshimjonni taniyanshami?», «Turoq, qofiya bozorini topdingmi?» deb bejizga so'ramaymiz.

Ayrim ijodkor o'quvchilarimiz she'riyatning qonun-qoidalaridan xabardor bo'lmay turib, ijod qilishga harakat qilishadi. Shuning uchun ularning she'ri g'alizroq chiqadi, ohangdoshlik, qofiyadoshlik to'g'i kelgani bilan mazmunida kamchilik bo'lib qoladi yoki aksincha. Buning uchun, avvalo, she'ring, qofiyaning, turoqning nimaligini, qanday vaznlar borligini ijodkor yaxshi bilishi zarur.

She'r shoirning ichki his-tuyg'ularini, o'y-fikrlarini bir qolipga solib, qofiyadosh so'zlardan foydalaniib, ifodalangan she'riy nutqdir. She'r yozishda hijo (ya'ni, bo'g'in) va turoqning ahamiyati katta.


PUSHAYMON

**Oromgoh mazza-da, yangi-yangi do'stlar orttirasan. O'zing haqingda
gapirasan, boshqalar haqida bilib olasan.**

Oromgohga sindoshim Sarvar bilan bordik. Sarvar maqtanishni yaxshi ko'radi. Ayniqsa, notanish bolalar orasida go'yo «baliq» bo'lib suzadi. Bilasiz, oromgohda qiziqarli tadbirlar ko'p o'tkaziladi. Ayniqsa, bizga «Harflar olami» tadbiri yoddi. Har kim o'zida bor deb hisoblaydigan sifatlarni sanay boshladi. Sarvarga navbat kelganda, u «samimiy», «aqli», «rostgo'y», «vafoli» kabi fazilatlarni aytdi. Yetakchimiz tanlagan fazilatlarimizni tahlil qila boshladi. Shunda guruhdoshimiz Komil: «Opa, Sarvar kecha Diyorbekni bizga yomonladi, u samimiy emas», dedi. Yetakchimiz: «Sarvar, rostdan ham Diyorbekni yomonladingmi?» deb so'ragan edi. U «Yo'q», deb javob berdi. Guruhdagagi besh-olti bola esa «Yomonlading-ku», deb tasdiqlashgach, Sarvar jum bo'lib qoldi. Yetakchimiz: «Sarvar, sen samimiy emas ekansanku!» dedi. Sinfoshim qip-qizarib ketdi va «Endi bunday qilmayman», deb hammadan kechirim so'radi.

Diyorbek DONIYOROV,
Sirdaryo viloyati, Boyovut tumanidagi 13-umumta'l'm maktabining 7-sinf o'quvchisi

HOSHIMJON IZLAGAN QOFIYA BOZORI



Qofiya she'riy misralarning oxiridagi so'zlarning ohangdosh bo'lib kelishidir. Turoq esa hijolarning misralar bo'yicha muayyan tartibda takrorlanib kelishidir.

O'zbek she'riyatida 3 ta – barmoq, aruz va erkin vaznlar mavjud. Ular orasida eng ko'p tarqalgani – bu barmoq vazni bo'lib, unda misralarda bo'g'inalar soni bir xilda takrorlanadi va bir xil guruhanadi. Misol uchun:

Vatanlar shodasi ichra durdona, (11 bo'g'in)
O'zingsan dunyoda tanho, yagona, (11 bo'g'in)
Qoshingda bir umr bo'lib parvona, (11 bo'g'in)
Vatanim, koringga yarasam deyman. (11 bo'g'in)

Bu she'ning har bir misrasida 11 bo'g'in ishlataligan. Qofiyadosh so'zlar – yagona, parvona, durdona so'zleri qo'llangan. Qoshingda, dunyoda so'zleri esa ohangdosh bo'lib kelgan.

Mana sizga Hoshimjon kabilar izlagan qofiya va turoq, amro bo ham she'ning mukammal bo'lishi uchun kifoya qilmaydi. Qancha ko'p she'r o'qisangiz, yod olsangiz, she'riyatdek sehrli xilqatdan zavq va ilhom olasiz.

Roza ERMETOVA,
Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi 5-umumta'l'm
maktabining ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi



BALLI, AZAMATLAR!

Sport insonni chiniqtirib, uning doimo yaxshi
kayfiyatda bo'lishi va sog'lom fikrlashiga
ko'maklashadi.

Poytaxtimizdagi 52-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabida ham
har tong o'quvchilar turli mashqalar bajarib, so'ngra dars mashg'ulot-
lariga kirishadi. Yaqinda Abu Dabida imkoniyati cheklangan
sportchilar orasida bir hafta davomida o'tkazilgan Butunjahon
yozgi maxsus olimpiadasida ishtirot etgan ushuu ta'llim



muas-
sasasi-
ning 4 nafr
o'quvchisi 3
ta oltin, 3 ta
kumush, 3 ta
bronna medal-

lariga sazovor bo'lishdi. Sportning suzish, badiiy gimnastika,
sport gimnastikasi, badminton va stol tennis turlari bo'yicha
qatnashgan sportchilarimizdan – 10-«B» sinf o'quvchisi Abubakir
Anvarov 3 ta oltin, 2 ta kumush va 1 ta bronza, shu sinfning yana
bir o'quvchisi Akbar Rixsiyev 1 ta kumush, 1 ta bronza, 7-sinf
o'quvchisi Shukur Alimov 1 ta kumush, 1 ta bronza medallarini
qo'lg'a kiritishdi. Bu xushxabarni eshitgan jamoamiz a'zolari bir
ovozdan: «Balli, azamatlar!» deb yubordik. G'olib o'quvchilarni
ularning ota-onalari, do'stlari, sevimli ustozlari poytaxtimizning Islom
Karimov nomidagi xalqaro aeroportida tantanavor kutib olishdi.

Yana bir xushxabar: Toshkent jismoniy tarbiya va sport boshqarmasi
boshligi Anvar Mursakulov va bir necha xodimlar bolajonlarga kitob ulashdi. Bu tuhfa o'quvchilarimizning bo'sh vaqtlanini
mazmunli o'tkazishlariga ko'mak berishi, shubhasiz.

Go'zal PO'LATOVA,
poytaxtimizning Yashnobod tumanidagi 52-ixtisoslashtirilgan
umumta'lim maktabining musiqa fani o'qituvchisi



ENG FAOL SPORTCHILAR ANIQLANDI

Maktabimizda bu yilgi «Umid nihollari» sport
musobaqalari juda qiziqarli, maroqli o'tmoqda.

Ayniqsa, yuqori sinf o'quvchilar o'ttasida jismoniy tarbiya fani
o'qituvchisi Ahadjon Erkaboyev boshchiligidagi voleybol, basketbol,
futbol bo'yicha bellashuvlar ko'tarinkilik bilan tashkillashtirildi. 5-6-
sinf o'quvchilar o'ttasida o'tkazilgan stol tennis, «Quvnoq startlar»
hamda yengil atletika bo'yicha sport musobaqalariga juda ko'plab
o'quvchilar jaib qilindi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar o'ttasida shax-
mat-shashka bahsi bo'lib o'tdi. Yakunda «Umid nihollari» viloyat
bosqichining yengil atletika musobaqalari bo'yicha ishtirotchisi
8-«B» sinf o'quvchisi Asadbek Ilhomov, 5-sinf o'quvchisi Zilola
Ilhomova va 6-sinf o'quvchisi Hulkaroy Abdullayeva «Eng faol
sportchix» sifatida alohida e'tirof etilib, faxriy yorliq hamda esdalik
sov'g'alarini bilan taqdirlandi. Bellashuvga taklif etilgan ota-onalar
jamoalarni ruhlantirib turishdi. Maktab ma'muriyati va musobaqa
tashkilotchilariga minnatdorchilik bildirishdi.

Umidjon OLIMOV,
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi
33-umumta'lim maktabining jismoniy tarbiya o'qituvchisi

QIT'A BIRINCHILIGI YAKUNLANDI:

5 ta oltin, 2 ta kumush va bronza medali –
o'zbekistonliklarda!

Joriy yilning 1-10-aprel kunlari Shri-Lankaning Kalutara shahrida
shaxmat bo'yicha Osiyo championati bo'lib o'tdi.

8-18 yoshgacha bo'lgan
o'g'il-qizlar o'tasidagi mazkur mu-
sobaqada sportchilar klassik, rapid
va tezkor yo'nalishlarda bahsashishdi.
Championlar orasida hamyurtlarimidan
Humoyun Bekmurodov, Afruza Hamdamova,
Ruqiya Olimova, Umida Omonova va Abdusalimovlarning borligi quvonarlidir.
Humoyun Bekmurodov qo'sh oltin medal
bilan taqdirlandi: 8 ochko to'plab, 10 yosh-
gacha bo'lgan bolalar o'ttasida tengsizligini
isbotlagan bo'lsa, musobaqaning blits
bahsalarida ham oltin medalni qo'lg'a kiritdi.

Afruza Hamdamova 10 yoshgacha bo'lgan qizlar o'ttasida 7 ochko jamg'ardi. U

rapid bahsalarida ham kumush medalga sazovor bo'ldi.

Umida Omonova hamda Abdusalimovlarning ham o'z
yosh toifasida oltin medalni qo'lg'a kiritishdi.

Nurbek QIDIRALIYEV

TUMANDA

PESHQADAMMIZ

Xabaringiz bor, o'tgan oyda respublikamizda ilk marta «Qizlar sammiti»
o'tkazildi. Iqtidorli, iste'dodli va zukko qizlar jamlangan ushuu anjumanda
Xorazm viloyati, Bog'ot tumanidagi 3-umumta'lim maktabining
10-«A» sinf o'quvchisi Zebo Matchonova o'zining «Dilemma» loyihasi bilan
qatnashib, maxsus sertifikat bilan taqdirlandi.

Bu haqda Zeboning o'zi shunday deydi:

«Qizlar sam-
miti»da intiluvchan
qizlar bilan tanish-
dim. Qiziqishlari-
miz, kelajakdag
orzularim bilan
o'rtoqlashdir. Yangi
dugonalarim
bilan sammitdan
keyin ham tajri-
balimiz, izlanish-
larimiz natijalarini
o'rtoqlashib tur-
ishga kelishib
oldik. Maktabimiz-
da men singari
da men singari
o'quvchilar juda ko'p...



«Kitobxon o'quvchi» respublika ko'rrik-tanloving tuman
bosqichida kitobxon qizimiz Zubayda Rahmonova 1-o'rinni
egallab, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lg'a kiritdi.

Shu birgina e'tirof sabab Zeboxon tahlil olayotgan maktab bilan bog'landik.
Maktab direktori Sharofat opa Allaberganovaning «Labbay», degan so'zlariga
qo'ng'iroqning jarangdor tovushi-yu, o'quvchilarining shodon qiyqirqlari jo'rovoz
bo'ldi. Maqsadimizni anglagan direktor opa o'quvchilari erishayotgan muvaffaqiyatlardan so'zlay ketdilar:

Bilim maskanimizda ayni damda 1059 nafr o'quvchi ta'limga oladi. Ta'limga maskanimiz
tuman maktablarini reytingi bo'yicha 3-o'rinda turadi. Biz o'quvchilarimizning
nafaqat ta'limgarbiyasiga, balki jismonian barkamolligiga ham alohida e'tibor
aratamiz. O'z navbatida, sportsevar o'g'il-qizlarimiz ham ko'plab yutuqlarni qo'lg'a
kiritishmoqda. Jumladan, maktabimizning iqtidorli o'quvchisi Maftuna Madaminova
va Yasmina Matyoqubova badiiy gimnastikadan, Mirzabek Rahimov stol tennisidan,
Boburjon Matyoqubov shaxmatdan, Boburjon Atabayev va Boburjon Berdiyev
milliy kurash bo'yicha ko'plab yutuqlarni qo'lg'a kiritishmoqda. O'quvchilarining
bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, iqtidorlarini yuzaga chiqarish, o'quvchilarida
yetakchilik ko'nikmalarini shakkantirish maqsadida tashkil etilgan «Eng namunalni
sinf «Kamalak» sardorlari» ko'rrik-tanlovida 7-«A» sinfning «Kamalak» sardorlari
tumanda 1-o'rinni egallahdi.

Hayot tasodiflarga to'la. Insonlarning turli kutilmagan vaziyatlarga tushib qolishlari
ham tabib hol. Har qanday holatda shoshib qolmaslik, vaziyatni to'g'ri baholash
davr talabidir. Shu maqsadda tashkil qilingan «Yosh qutqaruvchilar» tanloving
tuman bosqichida 11-sinf o'quvchilarini «Eng yaxshi ishtirot etgan yosh qutqaruv-
chi» nominatsiyasi g'olib bo'lishdi. Havo militig'idan o'q otish musobaqasida esa
o'quvchilarimiz tumanda 2-o'ringa sazovor bo'lishdi.

**Gapni mustasar qilib aytadigan bo'lsak, bu maktab o'quvchilari doim izla-
nish-u intilishdalar. Yosh avlodni bilimli, salohiyati qilib tarbiyalash uchun
hormay-tolmay mehnat qilayotgan ustozlarga esa, shogirdlaringiz hamisha
yuzingizni yorug' qilsin, deymiz.**

Ozoda TURSUNBOYEVA

RANGLAR JILOSI


Farg'on'a viloyati, Beshariq tumanidagi 27-umumta'lim maktabining «Tasviriy san'at» to'garagi a'zolari ijodidan



BO'SH O'TIRMAY, BOSH QOTIR!

Eniga: 5. Yozuvchi Mirkarim Osim qissasi. 7. O'zaro kelishuv, to'xtam. 9. Tanadagi emallni a'zo. 10. Afrikadagi daryo. 11. Jizzax viloyatidagi tuman. 13. Daromaddan davlat hisobiga to'lanadigan mablag'. 14. Xudoyberdi To'xtaboyevning «Qasoskorning oltin boshi» romanini qahramoni. 16. Hayvon va parrandalarni tirik tutish uchun mo'ljalangan ov quroni, tuzoq. 18. O'q uzish uchun mo'ljalga olingan narsa. 21. O'zbek bolalar shoiri ismidan ... Barnoyev. 23. Tojikistondagi nurchilar shahri. 25. Ip-gazlama turi. 26. Sopol idish. 27. O'zbekiston Respublikasi Parlamentining yuqori palatasi. 28. O'zbek milliy sporti.

Bo'yiga: 1. Bilimlar manbai. 2. Binokorlik materiali. 3. Poytaxtimiz viloyatidagi shahar. 4. Maqoldan: «... - oltindan qimmat, qilichdan keskir, zambarakdan kuchli». 6. Yevropadagi poytaxt shahar. 8. So'zlashuv vositasi. 12. Qadrl, kamyob narsa. 13. Don chiqiti. 15. Dukkakli don. 17. Musiqali sahna san'ati. 18. Super liga fabol jamoasi. 19. Musiqa asbobini chalish moslamasi. 20. Mato yoki charmdan tayyorlangan belbog'. 22. Toshkentdagi nashriyot. 24. Yevropadagi ko'mir havzasi.



Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

15-aprel 2019

NARGIZA tayyorladi

Pazanda qizg'ali



Aziz qizlarjon! Har kuni tongda «Bugun nonushtaga nima tayyorlasam ekan?» deya bosh qoti-

rishingizga endi hojat yo'q. Bugun sizlarga oddiyigina qatlamaning xamiridan 3 usulda pishiriqlar tayyorlashni o'rgatamiz. Tayyormisiz? Unda, boshladik:

SARIYOG'L1

250 gramm qatlama xamirini yupqa qilib yoyamiz. Keyin ularni uchburchak shaklida kesamiz. 2 oshqoshiq sariyog' va 1 oshqoshiq shakarni aralashshtir, uchburchak shaklidagi xamirlarga surtib chiqamiz va gaz patnisiga terib, uni 180 darajada qizdirilgan gaz pechida 10 daqiqa davomida pishiramiz.

YONG'OQLI

500 gramm qatlama xamirini yoyingda, o'tasidan ikki bo'ling. 100 gramm shakar, 1 oshqoshiq dolchin, 1 stakan yong'oq va yarim stakan mayizni aralashshtiring.



So'ngra, aralashmani xamirlar ichiga soling-da, rulet shaklida o'rang. Ruletni 1,5-2 sm kattalikda kesib, yog'langan gaz patnisiga terib chiqing va qizdirilgan gaz pechida 20 daqiqa davomida pishiring.

MURABBOLI PISHIRIQ

250 gramm qatlama xamirini yoyib, 10-12 sm li to'rburchak shaklini kesing. Ularning har biriga ko'pitirilgan tuxum va istalgan murabbodan 1 oshqoshiqdan solib, atrofini sanchqi yordamida shakl berib, yopib chiqing. Ustiga tuxum sarigi surtib, yog'langan patnisiga terib chiqing. Qizdirilgan gaz pechida 20 daqiqa davomida pishiring. Pishgach, ustiga qand upasi seping.

Mana, pishiriqlarimiz ham tayyor. Yoqimli ishtaha!

Bosh muharrir
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0208-raqam bilan 2007-yil
2-fevralda ro'yxitadan
otgan.

TAHIR HAYATI:
Qahramon QURONBOYEV,
Dilshod KENJAYEV,
Murtazo SULTONOV,
Feruza JALILOVA,
Ashurali JO'RAYEV
(Bosh muharrir o'rinosari),
Feruz MATYOQUBOV
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir
Sayyora QODIROVA

Rassom
Feruzbek KAMOL o'g'li

Sahifalovchi-dizayner
Shaxobiddin
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMU bosma-xonasida chop ettili.
Gazetaning poligrafik jihatidan sifatli chop ettilishiha bosmaxona mas'ul.
Manzillimiz va bosmaxona manzili:
Toshkent shahri, Navoiy ko'chasi,
30-uy. Indeks: 100011.
Obuna indeksi: 198.
www.tongyulduzi.uz
e-mail: tongyulduzi1929@mail.ru
telegram: t.me/tongyulduz
Adadi - 11730
Buyurtma - V 3310

Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetakizib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilat javobiga.
Shakli A-3, 2 bosma taboq.
Bahosi kelishilgan narxa.
Gazeta haftaning dushanba kuni chop ettili.
Topshirish vaqt - 18:00
Topshirildi - 18:00
Tel/faks: (99871) 244-63-08